



## KIMYO SANOATI KORXONALARIDA XARAJATLAR VA ULARNI TASHKIL ETISH XUSUSIYATLARI

**Onorboev Shuhratjon**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0005-5303-169X

[shuhratjon.onorboyev@tsue.uz](mailto:shuhratjon.onorboyev@tsue.uz)

**Annotatsiya.** Global iqtisodiyotning tez sur'atlar bilan rivojlanishi energiya, xom ashyo va minerallarga bo'lgan talabni ortishiga va bu o'z navbatida qazib olish, qayta ishlash xamda kimyo sanoatining rivojlanishiga olib keldi. Kimyo sanoati raqobatbardoshlikni ta'minlash va uni barqarorligini ta'minlash bugungi kunda tarmoqni rivojlantirish muxim omillaridan biriga aylandi. Korxonalar raqobatbardoshligi resurslar foydalanish samaradorligini ta'minlashga bevosita bog'liq. Boshqaruv hisobida korxonalarda qaror qabul qilishni qo'llab-quvvatlash, xarajatlarni optimallashtirish kabi usullar yordamida resurslarni tashkil etish va foydalanish samaradorligi ta'minlanadi. Ayniqsa xarajatlarni tashkil etish samaradorligini ta'minlashda, maxsulot tannarxini to'g'ri aniqlashda ABC (Activity-Based Costing) usuli samaralidir.

**Kalit so'zlar:** global iqtisodiyot, energiya, xom ashyo va minerallarga bo'lgan talab, raqobatbardoshlikni ta'minlash, qaror qabul qilishni qo'llab-quvvatlash, xarajatlarni optimallashtirish, resurslarni tashkil etish va foydalanish samaradorligi, ABC (Activity-Based Costing) usuli.

## ЗАТРАТЫ И ОСОБЕННОСТИ ИХ ОРГАНИЗАЦИИ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ ХИМИЧЕСКОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ

**Онорбоев Шухратжон**

Ташкентский государственный экономический университет

**Аннотация.** Быстрое развитие мировой экономики привело к росту спроса на энергию, сырье и минералы, что, в свою очередь, способствовало развитию горнодобывающей, перерабатывающей и химической промышленности. Обеспечение конкурентоспособности химической промышленности и ее устойчивости стало одним из важных факторов развития отрасли сегодня. Конкурентоспособность предприятия напрямую связана с обеспечением эффективности использования ресурсов. Управленческий учет обеспечивает организацию и использование ресурсов с помощью таких методов, как поддержка принятия решений на предприятиях и оптимизация затрат. Метод ABC (Activity-Based Costing) особенно эффективен для обеспечения эффективности организации затрат и правильного определения себестоимости продукции.

**Ключевые слова:** глобальная экономика, спрос на энергию, сырье и полезные ископаемые, обеспечение конкурентоспособности, поддержка принятия решений, оптимизация затрат, организация ресурсов и эффективность их использования, метод ABC (учет затрат на основе видов деятельности).

**COSTS AND THEIR ORGANIZATIONAL FEATURES IN CHEMICAL INDUSTRY ENTERPRISES****Onorboyev Shuhratjon***Tashkent State University of Economics*

**Abstract.** *The rapid development of the global economy has led to an increase in demand for energy, raw materials, and minerals, which, in turn, has contributed to the development of the mining, processing, and chemical industries. Ensuring the competitiveness and sustainability of the chemical industry has become one of the key factors in the industry's development today. An enterprise's competitiveness is directly linked to the efficient use of resources. Management accounting ensures the organization and use of resources through methods such as decision support and cost optimization. The ABC (Activity-Based Costing) method is particularly effective in ensuring the efficient organization of costs and the accurate determination of product costs.*

**Keywords:** *global economy, demand for energy, raw materials and minerals, ensuring competitiveness, decision support, cost optimization, resource organization and efficiency of their use, ABC method (activity-based costing).*

**Kirish.**

Bugungi iqtisodiy globallashuv sharoitida dunyo iqtisodiyotining tez sur'atlar bilan rivojlanishi yuz bermoqda. Buning oqibatida global iqtisodiyotning resurslarga bo'lgan talabi keskin oshdi. Dunyo iqtisodiyotining resurslarga bo'lgan bunday katta talablarini qondirish kimyo sanoatini zamon talablari darajasida rivojlantirish orqali ta'minlanadi. Keyingi yillarda kimyo sanoati tez sur'atlar bilan rivojlanmoqda, sohaga katta investitsiyalar jalab etilib, yangi mahsulotlar o'zlashtirmoqda. Bu o'z navbatida sohada raqobatni kuchayishiga va strategik maqsadlarni belgilashda o'ziga xos o'zgaruvchan muhitni yuzaga kelishiga olib kelmoqda.

Xozirgi paytda mamlakatimiz iqtisodiyoti taraqqiyotining yuksalish bosqichiga kirgan bir sharoitda korxonalar iqtisodiy faoliyatining muvaffaqiyati qabul qilingan boshqaruv qarorlari sifatiga bog'liq bo'lib, bunday qarorlar ma'lum boshqaruv axborotlari asosida qabul qilinadi.

Kimyo sanoati korxonalarini tashkiliy tuzilmasi murakkab bo'lib, ular turli ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatuvchi tarkibiy bo'linmalardan tashkil topadi. Bunday tarkibiy tuzilmaga ega bo'lgan korxonalar yuqori samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishga, iqtisodiy faoliyat va uning natijalari to'g'risidagi tezkor va tizimli axborotlarga ehtiyoj sezadi. Keyingi yillarda bozorda raqobat kuchayib borishi korxonalar faoliyatida axborotlarning o'rning oshishi, ularga bo'lgan talabni kuchayishi boshqaruv hisobchilari va ular tomonidan boshqaruv uchun tayyorlanayotgan axborotlarga ayniqsa talabni kuchaytirdi. Bunday sharoitda tarmoq korxonalarida boshqaruv hisobini tashkil etish va uning zamonaviy usullaridan yetarlicha foydalanish davr talabiga aylandi.

**Adabiyotlar sharhi.**

“Boshqaruv hisobi — rahbarlar uchun tashkilot maqsadlariga erishishda yordam beruvchi ma'lumotlarni aniqlash, o'lchash, tahlil qilish, talqin etish va yetkazish jarayoni” (Horngren va boshq., 2005) “Boshqaruv hisobi — bu ma'lumotlarni aniqlash, o'lchash, to'plash, tahlil qilish, tayyorlash, talqin etish va yetkazish jarayoni bo'lib, u rahbariyat tomonidan tashkilot ichida rejalashtirish, baholash va nazorat qilish hamda resurslardan to'g'ri foydalanishni ta'minlash uchun qo'llaniladi.”( Druri, 20). “qaror qabul qilish, rejalashtirish va prognozlash jarayonlarida menejmentga yordam beruvchi ma'lumot tizimi”( Labro, 2025). “Boshqaruv hisobi — bu moliyaviy va nomoliyaviy ma'lumotlarni aniqlash, o'lchash, tahlil qilish va yetkazish jarayoni bo'lib, u rahbariyat tomonidan strategiya ishlab chiqish, rejalashtirish, nazorat qilish va boshqaruv qarorlarini qabul qilishda qo'llaniladi.”( Atkinson, 2016). “Strategik boshqaruv hisobi — bu tashkilotning uzoq muddatli strategiyasini ishlab chiqish va amalga

oshirish, raqobatbardoshlik ustunliklarini baholash hamda barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tahlil qilish tizimidir.” (Baxrushina, 2017) “Boshqaruv hisobi — bu ichki foydalanuvchilar, ya'ni rahbarlar va menejerlar uchun mo'ljallangan ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tahlil qilish tizimi bo'lib, u samarali rejalashtirish, nazorat va boshqaruv qarorlarini qabul qilishni ta'minlaydi.” (Kerimova, 2010). “Boshqaruv hisobi — bu tashkilot xarajatlari va faoliyat natijalari haqidagi ma'lumotlarni shakllantirish va foydalanish tizimi bo'lib, u ichki foydalanuvchilar — rahbarlar va menejerlar uchun mo'ljallangan hamda rejalashtirish, nazorat va boshqaruv qarorlarini qabul qilishni ta'minlaydi.” (Karpova, 2012). “Boshqaruv hisobi — korxonadagi iqtisodiy jarayonlar haqidagi ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tahlil qilish tizimi bo'lib, u rahbariyatga rejalashtirish, nazorat va samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishda xizmat qiladi” (Xasanov, 2003). “Boshqaruv hisobi korxonalarda ichki nazorat va byudjetlashtirishni takomillashtirishga xizmat qiladigan, rahbariyatni samarali qarorlar qabul qilish uchun zarur axborot bilan ta'minlaydigan tizimi” (Abdusalomova, 2019). “Boshqaruv hisobi — bu korxonadagi iqtisodiy jarayonlar haqidagi ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tahlil qilish tizimi bo'lib, u rahbariyatga byudjetlashtirish, rejalashtirish va samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishda xizmat qiladi”. (Maxsudov, 2018).

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Korxonalarida boshqaruv hisobini tashkil etishning xususiyatlarini ta'minlovchi kuzatish, umumlashtirish, taxlil, taqqoslash, induksiya, deduksiya kabi usullardan tashkil topadi.

### **Tahlil va natijalar muhokamasi.**

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarda boshqaruv hisobi axborotlarni jamlash va taxlil qilish, byudjetlashtirish va rejalashtirish, rejalarni bajarilishini nazorat va monitoring qilish xamda, qarorlar qabul qilish uchun axborot ta'minotini ta'minlash kabi kompleks vazifalarni bajaradi.

Keyingi davrlarda boshqaruv hisobining raqamli texnologiyalar bilan uyg'unlashishi (Big Data, Business Intelligence analitik platformalardan foydalanish) smaradorlikni oshishiga olib keldi. Natijada boshqaruv hisobi korxonalarda amaliyotda moliyaviy hisobotlarni tayyorlash bilan birgalikda strategik rejalashtirish, innovatsiya va raqobatbardoshlikni ta'minlash vositasi sifatida xam qo'llanilmoqda.

Boshqaruv hisobi ma'lumotlari korxonada uning alohida tarkibiy qismlari bo'yicha tayyorlanadi va ularni umumlashtirish orqali turli darajalarda nazoratni ta'minlash uchun foydalanish mumkin bo'lgan axborotlarga aylantiriladi. Boshqaruv hisobi odatda to'rtta javobgarlik markazi, “xarajat markazi, daromad markazi, foyda markazi va investitsiya markazi” bo'yicha yuritiladi. “Xarajat markazi odatda markaz rahbari javobgarligi doirasini belgilab, bunda markaz rahbari amalga oshirilgan xarajatlarga javob beradi”. Kimyo sanoat korxonalarida xarajat markazlari ularning iqtisodiy mustaqilligi, jarayonlarni bir turdaliligi, faoliyat bo'yicha javobgarlik avtonomligi, xarajatlarni faoliyatlarga tegishliligi bo'yicha belgilanadi” Markazlarni tashkil etishda asosiy e'tibor resurslardan foydalanish samaradorligini yuqori darajada ta'minlashga qaratiladi. Xarajat markazlari faoliyatini baholashda resurslardan foydalanish samaradorligi ko'rsatkichlari bilan birgalikda sifat ko'rsatkichlariga ham e'tibor qaratiladi. Bu esa xarajatlarda samaradorlik sifatdan yo'qotish evaziga olinmasligini ta'minlaydi. Shuning uchun har bir xarajat markazida amalga oshirilgan xarajatlar bo'limlar tomonidan nazorati amalga oshiriladigan va amalga oshirilmaydigan xarajatlarga bo'linadi. Xarajatlarni bunday tashkil etish ularni sarfiga javobgarlikni oshirishga yordam beradi. Boshqaruv hisobi boshqaruv nazoratini ta'minlashga xizmat qilishi lozim. Nazorat korxonada tarkibiy qismlari bo'yicha amalga oshirilganda qabul qilingan qarorlarni bajarilishini ta'minlashga xizmat qiladi. Shuning uchun korxonada rahbari barcha bo'limlarga

majburiyatlarini belgilab berishi lozim va shu yo'l bilan barcha bo'limlar faoliyatini yagona maqsad atrofida birlashtirishga erishadi. Ushbu jarayonlarni tashkil etishda boshqaruv hisobi o'ziga xos rol o'ynab, uning asosiy maqsadi, boshqaruv apparatini xo'jalik faoliyati to'g'risidagi talablar darajasida shakllantirilgan yakuniy axborotlar bilan ta'minlash bo'lib, bunday axborotlar mavjud ma'lumotlarni qayta ishlash orqali olinadi. Boshqaruv hisobi tarkibiy bo'limlar kesimida tashkil etiladi, kerakli axborotlar olinadi va qayta ishlanadi, boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun yetkazib beriladi. Ushbu axborotlar asosida belgilangan topshiriqlarni bajarilishi bo'yicha nazorat amalga oshiriladi, shundan so'ng ushbu axborotlar negizida boshqaruv qarorlari qabul qilinadi va qabul qilingan qarorlar bo'limlarga tushiriladi.

Kimyo sanoati korxonalarida boshqaruv hisobi tomonidan tayyorlangan ma'lumotlar, ularni tayyorlashda qo'llanilgan hisoblash usullari nafaqat yuz bergan iqtisodiy jarayonlarni samaradorligini hisoblashda balki ushbu jarayonlarning alternativ variantlarini hisoblashga, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bo'yicha boshqaruv qarorlarini samaradorligini oshirishga sharoit yaratadi.

Kimyo sanoatida boshqaruv hisobida katta e'tibor xarajatlar hisobiga qaratiladi, chunki korxonaning raqobatda ustunligini va muvaffaqiyatli iqtisodiy faoliyatini ta'minlashning muhim usullaridan biri xarajatlarda liderlik yoki hech bo'lmaganda yuqori samaradorlik va optimallik orqali ta'minlanadi. Kimyo sanoatida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning standartligi hamda ularning baholarini belgilashda raqobatni hisobga olish talablarining mavjudligi ishlab chiqarish xarajatlarida tejamkorlikka erishish korxonaga foydasini oshirishning asosiy omillaridan biriga aylantiradi.

Xarajat deganda odatda ma'lum bir iqtisodiy maqsadni amalga oshirish uchun sarflangan resurslar sarflarining puldagi qiymati tushuniladi. Xarajatlar kategoriyasi orqali barcha turdagi resurslardan turli maqsadlarda sarflanish jarayoni aks ettirilgani sababli, ushbu tushunchani tariflashda turlicha yondoshuvlar mavjud bo'lib, ular aktivlarni kamaytiruvchi majburiyatlarni orttiruvchi, mahsulot tannarxini orttiruvchi yoki foydani kamaytiruvchi, boshqaruv qarorlariga ta'sirchan yoki ta'sirchan bo'lmagan va shunga o'xshash bir qator xususiyatlarga ega bo'lgan kattalik sifatida talqin etiladi. Xarajatlarga asosiy ta'riflar qonun xujjatlarida, professional tashkilotlar va iqtisodchi olimlar tomonidan ishlab chiqiladi (1-jadval).

K. Druri "Xarajatlar - korxonaga tomonidan mahsulot ishlab chiqarish, ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatish jarayonida sarf etilgan iqtisodiy resurslarning pulda ifodalangan qiymatidir". Ch. Xorngren "Xarajat deb mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish jarayonida foydalanilgan resurslarning tan olingan qiymati tushuniladi". IAS 1 "Xarajat deb foyda olish maqsadida amalga oshirilgan va hisobot davrida moliyaviy natijalarga bevosita ta'sir qiluvchi sarflar tushuniladi" Koler (Kohler) "Xarajatlar hisobi - bu joriy va kelajakdagi xarajatlarni tasniflash, qayd etish, taqsimlash va ular bo'yicha hisobot berish bilan shug'ullanuvchi buxgalteriya sohasidir". CIMA "Xarajat - bu muayyan narsaga sarflangan yoki u bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar miqdori". Amerika Buxgalterlar Assotsiatsiyasi "Xarajat - muayyan maqsadga erishish uchun amalga oshirilgan yoki amalga oshirilishi mumkin bo'lgan, pul birligida o'lchanadigan resurs sarfidir". O'z.R. Qonunchiligi "Xarajatlar - mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqarish va sotish bilan bog'liq bo'lgan resurslarning pul ifodasidagi qiymati". B.A. Xasanov "Xarajatlar - bu korxonaning xo'jalik faoliyatini amalga oshirish va mahsulot ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) jarayonida ma'lum bir maqsadga erishish uchun sarflangan hamda pul shaklida ifodalangan resurslar (moddiy, mehnat va moliyaviy) miqdoridir". N.B. Abdusalomova "Xarajatlar - oddiy faoliyati jarayonida mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan hamda hisobot davri daromadini olish maqsadida qilingan resurslarning qilingan resurslarning qiymat ifodasidir".

Xarajatlar hisobi sanoat korxonalarida boshqaruv maqsadlarida xarajat turlari, paydo bo'lish joylari va xarajat tashuvchilari bo'yicha hisobga olinadi. Xarajatlar ularning turlari

bo'yicha hisobga olinganda asosan iqtisodiy faoliyatda iste'mol qilingan resurslarning turlari haqidagi ma'lumotlar xarajat elementlari sifatida hisobga olinadi.

Kimyo sanoati o'z xususiyatiga ko'ra turli xom ashyolardan kimyoviy jarayonlar vositasida mahsulotlarni olishga mo'ljallangan. Kimyo sanoatiga ishlab chiqarish jarayonlari boshqa tarmoqlarga nisbatan mexanizatsiyalashganligi, ishlab chiqarish xarajatlarini tarkibida mehnat xarajatlarining kamligi, material va energiya sarflarining yuqoriligi xosdir. Mahsulot tannarxida material xarajatlarning ulushi 60 % gacha yetishi mumkin. Shuningdek ishlab chiqarish jarayonlarining yuqori texnologiyalashganligi, tarmoqda amortizatsiya xarajatlarining katta miqdorlarda bo'lishiga olib keladi. Shu bilan birgalikda tarmoqda nazorat-o'lchov uskunalari bilan bog'liq xarajatlarning ham yuqoriligi xosdir. Tarmoqda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning o'ziga xosligidan kelib chiqib, katta miqdorda idish va o'rash bilan bog'liq xarajatlarni amalga oshiriladi. Kimyoviy mahsulotlarni ishlab chiqarish jarayonida bir vaqtning o'zida turli xom ashyo va materiallardan foydalaniladi, bu korxonalarda xom-ashyoning katta zaxiralari shakllantirish zaruriyatini xosil qiladi.

Kimyo korxonalarida har bir mahsulotni ishlab chiqarish o'ziga xos kimyoviy jarayonlardan tashkil topadi va bu o'z navbatida ishlab chiqarish xarajatlarining hajmlari turli mahsulotlar ishlab chiqarishda turlicha bo'lishi mumkinligini bildiradi. Masalan, ammafos (monoammoniy fosfat) mineral o'g'itini ishlab chiqarish jarayoni "pulpa hosil qilish uchun fosfor kislotasini gazsimon ammiak bilan neytrallashtirish, bug'lantirish, barabanli granulyatorlarda granulyatsiya qilish, granulalarni quritish, ularni tasniflash (fraksiyalarga ajratish) va tayyor o'g'itni olish uchun suyuq qatlamda sovutish. Bu jarayon qulay granulalar shaklida konsentrlangan azot-fosforli o'g'it ishlab chiqarish" kabi bosqichlaridan tashkil topadi.

Kimyo sanoati korxonalarida ishlab chiqarish tuzilmasi hamda iqtisodiy faoliyat murakkab bo'lganligi sababli xarajat tashuvchilar bo'yicha xarajatlarni hisobga olish yo'lga qo'yiladi. Xarajat tashuvchilar bo'yicha xarajatlarni hisobi mahsulot birligi uchun qanday resurslar sarfi amalga oshirilganligini aniqlashga yordam beradi. Xarajat tashuvchilari mahsulot, ish, xizmat va buyurtmalar, faoliyatlar hamda jarayonlar tashuvchilari mahsulot, ish, xizmat va buyurtmalar, faoliyatlar hamda jarayonlar kabi buxgalteriya obektlaridan tashkil topadi.

Xarajat tashuvchilar tannarxni shakllantiruvchi turli resurs sarflaridan tashkil topadi va ular xarajat moddalari yoki xarajat elementlari tarzida guruhlanishi mumkin. Xarajatlarni bunday tarzda hisobda aks ettirish ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar va ularning sarflari hamda samaradorlik ko'rsatkichlarini hisoblashga sharoit yaratadi.

Xarajatlarni to'g'risidagi axborotlar boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim axborotlardan bo'lib hisoblanadi. Xarajatlarni to'g'risidagi ma'lumotlardan foydalanib iqtisodiy faoliyatning moliyaviy natijalari tegishli (foyda, rentabellik) ko'rsatkichlar aniqlanadi va rejalashtirilayotgan davrga doir (ishlab chiqarish hajmlari, mahsulot birligi bahosi kabi) reja ko'rsatkichlari belgilanadi.

Kimyo sanoati korxonalarida bugungi kunda iqtisodiy faoliyat bilan bog'liq xarajatlarni ularni qanday faoliyat uchun amalga oshirilganligiga qarab ishlab chiqarish faoliyati bilan bog'liq xarajatlarni, davr xarajatlari, moliyaviy faoliyat xarajatlari, tasodifiy zararlar hamda soliq to'lovlari bilan bog'liq xarajatlarni tarzida hisobga olinadi. Ushbu usulga muvofiq ishlab chiqarishga to'g'ridan - to'g'ri bog'liq bo'lgan ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxiga olib boriladigan xarajatlardan boshqa xarajatlarni korxonaning moliyaviy natijalari hisobiga qoplanadi. Bu esa mahsulot turlari bo'yicha moliyaviy natijalarni aniqlashda tannarxga kirmaydigan xarajatlarni taqsimlash bilan bog'liq muammoni hal qiladi. Mahsulot ishlab chiqarish jarayonida iste'mol qilingan moddiy va mehnat resurslari sarflari ishlab chiqarish xarajatlari sifatida talqin qilinadi. Xarajatlarni odatda mavjud resurslardan foydalanish natijasida ularning miqdorlarining kamayishiga olib keladi. Shuning uchun xarajatlarni aktivlar kamayishi sifatida talqin etiladi. Agar korxonada iqtisodiy faoliyatida boshqa korxonalarining resurslaridan to'lov amalga oshirmagan holda qarzga foydalanayotgan bo'lsa u holda qarzlarni

ortishi ham xarajat sifatida e'tirof etiladi. Boshqaruv hisobi ishlab chiqarish hisobi negizida paydo bo'lganligi bois unda xarajatlarni tashkil qilishga katta e'tibor beriladi. Xarajat kategoriyasini talqin qilishda iqtisodiy faoliyatga doir xarajatlarni tannarx tarkibiga kiruvchi xarajatlarga aylanishiga e'tibor qaratiladi. Xarajatlarni bunday keltirilishi moliyaviy hisobotlarning halqaro standartlari talablariga ham mos keladi. Ushbu standartlar bo'yicha xarajatlar aktivlarning chiqib ketishi yoki aktivlarning kamayishini asosiy faoliyat doirasida yuz berishi tushuniladi. Bunda ushbu daromadlar korxonaning foyda va zararlar hisobotida daromad moddalari bilan bog'langan holda tan olinadi. Bu esa har qanday xarajat daromad keltirishi lozimligini majbur qilib qo'yadi. Shu yo'l bilan xarajatlarni rejalar bo'yicha amalga oshirilish nazorat qilish ta'minlanadi. Buxgalteriya hisobida mahsulot sotilganda, ushbu mahsulot uchun amalga oshirilgan haqiqiy xarajatlar hisobidan chiqariladi. Xarajatlar bu ma'lum faoliyatni amalga oshirish uchun amalga oshirilgan maqsadli resurslar sarfidir. Shuning uchun sarflar amalga oshirilganda korxonada aktivlar kamayishi yoki qarzlari oshishi yuz beradi.

Korxonalarda xarajatlarni boshqarishda ularni ma'lum turlari bo'yicha birlashtirib, guruhlarini shakllantirish muhim o'ringa ega. Ushbu jarayon xarajatlarni boshqarishning oldiga qo'yiladigan vazifalardan kelib chiqib amalga oshiriladi.

Xarajatlarni boshqarish oldiga quyiladigan vazifalar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- xarajat turlarini aniqlash va ularning optimallashtirish usullarini ishlab chiqish;
- mahsulot(ish va xizmat)lar turlari bo'yicha xarajatlarning optimal miqdorlarini belgilash;
- mahsulot tannarxi bo'yicha reja topshiriqlarini ishlab chiqish va ularni bajarilishini nazorat qilish;
- xarajatlar va tannarxni boshqarish bo'yicha axborot manbasini shakllantirish.

Ushbu vazifalardan kelib chiqib bugungi kunda boshqaruv maqsadlarida xarajatlar to'rt xil yo'nalishda, mahsulot tannarxini hisoblashda ishtiroki, iqtisodiy faoliyat bo'yicha qaror qabul qilishda hisobga olinishi, boshqaruvga ta'sirchanligi hamda sodir bo'lishi davriyligi bo'yicha guruhlanishi amaliyoti mavjud.

Mahsulot tannarxida ishtirok etishi bo'yicha:

- to'g'ri va egri xarajatlar;
- asosiy va ustama xarajatlar;
- kiruvchi va chiquvchi xarajatlar;
- ishlab chiqarish va noishlab chiqarish xarajatlari.

To'g'ri xarajatlar - mahsulot tannarxiga to'g'ri olib boriladigan xarajatlar, egri xarajatlar - mahsulot tannarxiga ma'lum kattaliklarga asosanib taqsimlanadigan xarajatlardir.

Asosiy xarajatlar - asosiy (operatsion) faoliyat bilan bog'liq xarajatlar, ustama xarajatlar - ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxiga kirmaydigan boshqa operatsion xarajatlar.

Kiruvchi xarajatlar - tashqaridan resurslarni jalb qilish bilan bog'liq xarajatlar, chiquvchi xarajatlar - sotilgan mahsulotlar moliyaviy natijasini aniqlashda hisobga olinadigan xarajatlar.

Ishlab chiqarish xarajatlari - ishlab chiqarilayotgan mahsulot ishlab chiqarish tannarxiga kiritiladigan xarajatlar, noishlab chiqarish xarajatlari - ishlab chiqarish tannarxiga kiritilmaydigan ishlab chiqarishni tashkil etish, boshqarish va sotish jarayoni bilan bog'liq xarajatlar.

Boshqaruv qarorlarini qabul qilishda hisobga olinishi bo'yicha:

Doimiy xarajatlar - ishlab chiqarish hajmi o'zgarishiga ta'sirchan bo'lmagan xarajatlar, o'zgaruvchan xarajatlar - ishlab chiqarish hajmi o'zgarishiga ta'sirchan bo'lgan xarajatlar;

Relevant xarajatlar - qabul qilingan qarorlarga ta'sirchan xarajatlar, norelevant xarajatlar - qabul qilingan qarorlarga ta'sirchan bo'lmagan xarajatlar;

Alternativ xarajatlar - variantlardan birini tanlash natijasida boshqa variantlarda yo'qotilgan imkoniyatlar xarajatlari;

Hisobga olinadigan xarajatlar - ma'lum variantni tanlanganda hisobga olinadigan xarajatlar, hisobga olinmaydigan xarajatlar - ma'lum variant tanlanganda hisobga olinmaydigan xarajatlar;

Qaytmas xarajatlar - avval qabul qilingan qarorlar bo'yicha amalga oshirilgan va joriy qarorlarga ta'sirchan bo'lmagan xarajatlar.

Boshqaruv qarorlariga ta'sirchanligi bo'yicha:

Boshqariladigan xarajatlar - boshqaruv qarorlariga bo'ysunadigan xarajatlar, boshqarilmaydigan xarajatlar - boshqaruv qarorlariga bo'ysunmaydigan xarajatlar.

Nazorat qilib bo'ladigan xarajatlar - ma'lum bo'lim faoliyatini baholashda va moliyaviy natijalarini aniqlashda hisobga olinadigan xarajatlar, nazorat qilib bo'lmaydigan xarajatlar - nazorat qilish imkoni yo'q, ularni faoliyat natijalarini baholashda hisobga olinmaydi.

Xarajatlarning bunday guruhlariga ajratish korxonada bir qator muhim axborotlarni olishga sharoit yaratadi.

Xarajatlarni mahsulot tannarxida ishtirok etishi bo'yicha guruhlanganda:

- mahsulot tannarxiga kiruvchi xarajatlarni aniqlash imkoniyati yaratiladi;
- tannarxni hisoblash osonlashadi;
- tannarxga kirmaydigan xarajatlar to'g'risida ma'lumotlar shakllanadi;
- xarajatlarni boshqarish va baho siyosatini yuritishga imkoniyat yaratiladi.

Boshqaruv qarorlarini qabul qilishda hisobga olinishi bo'yicha guruhlanganda:

- xarajatlarni boshqarish bo'yicha boshqaruv qarorlari samaradorligini oshirish imkoniyati yaratiladi;

- xarajatlarni ishlab chiqarish hajmlariga bog'lash va foydani oshirish bo'yicha qarorlar qabul qilish imkoniyati yaratiladi.

- relevant xarajatlarni boshqarish orqali bunday xarajatlarni optimallashtirish imkoniyati yaratiladi;

- alternativ xarajatlarni shakllantirish orqali mahsulot turini to'g'ri tanlash, samarasiz xarajatlarni oldini olish imkoniyati paydo bo'ladi;

- hisobga olinishi bo'yicha xarajatlarni guruhlash orqali ma'lum variantlar bo'yicha qarorlar qabul qilinayotganda hisobga olinmaydigan xarajatlarning hajmlarini baholash hamda variant xarajatlarni aniqlik bilan hisoblash imkoniyati yaratiladi.

Boshqaruv qarorlariga ta'sirchanligi bo'yicha xarajatlar guruhlanganda:

- boshqariladigan xarajatlar to'g'risidagi ma'lumotlar orqali javobgarlik markazida ushbu xarajatlarni samarali foydalanish bo'yicha qarorlar qabul qilinadi;

- nazorat qilish mumkin bo'lgan xarajatlar to'g'risidagi ma'lumotlar bunday xarajatlarni samarali nazorat qilishni ta'minlashga sharoit yaratadi.

Ko'rinib turibdiki, xarajatlarni guruhlariga birlashtirish orqali korxonalarda ularni samarali tashkil etish va boshqarish bo'yicha bir qator afzalliklarga ega bo'linadi. Bunday afzalliklarga quyidagilarni keltirish mumkin:

- mahsulot tannarxini shakllantiruvchi xarajatlarni aniq hisoblash imkoniyati yaratiladi;

- xarajatlarni boshqarish bo'yicha qabul qilinayotgan qarorlar natijadorligi oshadi;

- xarajatlarni turli faoliyatlar bo'yicha rejalashtirish va ularni nazorat qilish imkoniyati hosil bo'ladi;

- mavjud resurslardan foydalanish samaradorlik ko'rsatkichlarini baholash imkoniyati yaratiladi;

- xarajatlar bo'yicha raqobatda ustunlikka erishishga sharoit yaratiladi.


Korxonalarda xarajatlarni tashkil etishda ularni guruhlash usuli bilan birgalikda faoliyatlar va protseslar bo'yicha tashkil etish ham muhim bo'lib, buning natijasida umumiy xarajatlarni taqsimlash va mahsulot tannarxini aniqlashda aniqlikning ortishiga erishiladi.

“Xarajatlar hisobi faqatgina xarajatlarni qayd etish tizimi emas, balki boshqaruv qarorlarini qabul qilish vositasi hamdir.” (Horngren, 2005)..

Dunyo iqtisodiyotining rivojlanishi, bozorlarning kengayishi, raqobatning kuchayishi keyingi davrlarda innovatsion jarayonlarni kengayishi, texnika va texnologiyalarni yaratilish sur’atlarining tezlashishi olib keldi. Buning natijasida mahsulotlar turlari ko’paydi va ularning sifati oshdi. Ishlab chiqaruvchilarning sonining keskin oshishi va mahsulotlarning standartlashuvi va differensiallashuvi ishlab chiqaruvchilar o’rtasida raqobatning keskin oshishiga olib keldi. Bu o’z navbatida korxonalar faoliyatida innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar bilan bog’liq bo’lgan turli faoliyatlarining kengayishiga olib keldi. Bunday sharoitda xarajatlarni an’anaviy usulda tashkil etish usullarini zamonaviy usullarga almashtirish zarurati yuzaga keldi. Xarajatlarni tashkil etishning an’anaviy usullari bugungi kunda keng foydalanilmoqda. Ushbu usullar korxonada xarajatlarni tashkil etishda va nazorat qilishda yuqori smaradorlikka ega ammo, strategik maqsadlarda yetarli darajada ma’lumot bera olmaydi. Bunday usullarga “Standart kosting - Standard costing”, “Umumiy xarajatlarini taqsimlash - Traditional overhead allocation” kabi turli usullarni kiritish mumkin. Standart kosting usulida xarajatlarni oldindan me’yorlashtiriladi va erishilgan natijalar shu me’yorlar bilan solishtiriladi. Me’yorlardan og’ishlar yuz berganda asosiy e’tibor shu xarajatlarga qaratiladi. Ushbu usul me’yorlar bilan xarajatlarni nazorat qilishga asoslanadi. Standart kosting usuli qo’llanilganda asosiy e’tibor me’yorlarni yetarli bo’lishiga va ularni doimiy yangilanib turilishiga qaratilishi lozim.

Bugungi kunda xarajatlarni tashkil etishda an’anaviy usullar bilan birgalikda zamonaviy usullarning ham keng qo’llaninishi holati kuzatilmoqda. Zamonaviy usullarning paydo bo’lishining asosiy sabablari keyingi paytlarda iqtisodiyotda yuz bergan bir qator o’zgarishlar bo’lib, ularga mahsulot tannarxini hisoblashda yuqori aniqlikni ta’minlash lozimligi, mahsulot ishlab chiqarish xarajatlari ustiga qo’shiladigan doimiy xarajatlar hajmining o’sishi, mahsulot ishlab chiqarish jarayoni bilan bog’liq bo’lgan faoliyatlarining kengayishi kabilarni keltirish mumkin. Zamonaviy usullarga ABC costing (Activity-Based Costing), Target costing, Kaizen costing kabi bir qator usullarni keltirish mumkin.

ABC costing usulida sodir etilayotgan xarajatlar turli faoliyatlar bo’yicha tashkil etiladi va shundan keyin ushbu faoliyatlarda jamlangan xarajatlar ishlab chiqarilayotgan mahsulot turlariga taqsimlanadi.



**1-rasm. ABC costing usulida xarajatlarni taqsimlash tartibi**

ABC costing usuli ustama xarajatlarni aniq taqsimlashga sharoit yaratishga qaratilgan. Xozirgi kunda ABC costing usuli boshqaruv hisobida keng o’rganilgan usullardan biri bo’lib, uning xususiyatlari bo’yicha turli talqinlar mavjud. Quyida keltirilgan sharhlardan ko’rinib turibdiki, har bir ta’rifda ABC usuliga turlicha yondashilgan.

Kaplan & Cooper (AQSh) “ABC usulining asosiy tamoyili - faoliyatlar resurslarni iste’mol qiladi va mahsulotlar faoliyatlarini iste’mol qiladi.”. Ushbu ta’rifda ABC usuliga nazariy yondashilgan, avtorlar ushbu usulni resurslar, faoliyatlar va mahsulotlarni zanjiri sifatida ya’ni,

resurslardan faoliyatlarga va faoliyatlardan masulotlarga modelini talqin qiladi. Ushbu talqin afzalligi ABC usulining nazariy jixatdan asoslanishidir.

Drury, C. (Britaniya) "ABC mahsulot tannarxini aniqroq hisoblash imkonini beradi, chunki ustama xarajatlar avval faoliyatlarga, keyin esa mahsulotlarga taqsimlanadi." [25]. Ushbu ta'rifda ABC usulini ko'proq amaliy jixatiga e'tibor qaratiladi. Uning yondoshuvi bo'yicha ABC costing usulini qo'llash orqali tannarxni hisoblashda aniqlik ortadi. Chunki xarajatlar avvalo faoliyatlar bo'yicha tashkil etiladi va so'ngra yakuniy mahsulotlar taqsimlanadi. Natijada mahsulot tannarxini aniqroq hisoblash imkoniyati yaratiladi, chunki ustama xarajatlar avval faoliyatlarga, keyin esa mahsulotlarga taqsimlanadi. Ushbu yondoshuvning afzalligi xarajatlarni hisoblashda aniqlikning ta'minlanishi bo'lib hisoblanadi.

Horngren, C.T., Datar, S.M. (AQSh) "ABC usuli an'anaviy xarajat hisoblash usullarining cheklovlariga javob sifatida paydo bo'lgan." Ushbu ta'rifda ABC costing usuli bugungi kunda xarajatlarni tashkil etishda an'anaviy usullarning kamchiliklarini to'ldiruvchi usul sifatida paydo bo'lganligiga e'tibor qaratiladi. Bu usul yangicha yondoshuv bo'lib, u an'anaviy xarajat hisoblash usullarining cheklanganligiga javob sifatida yaratilgan deb ta'kidlaydilar. Bundan kelib chiqadiki ABC usuli zamonaviy talablar bilan bog'liq.

Johnson, H.T. (AQSh) "ABC menejerlarga mahsulotning haqiqiy tannarxini anglash imkonini beradi, xarajatlarni faoliyatlar bilan bog'laydi". Ushbu yondoshuvda ABC costing usuli boshqaruv funktsiyasi sifatida talqin etiladi. ABC usuli boshqaruvchilarga xarajatlarni to'g'ri tashkil etish va mahsulot tannarxi shakllantirish vositasi sifatida ta'riflanadi. Tannarxda aniqlik esa qarorlar qabul qilish jarayonida muhim vosita bo'lib hisoblanadi.

Blocher, E., Stout, D. (AQSh) "ABC - xarajatlarni faoliyatlar va natijalar bilan uyg'unlashtirishga yordam beruvchi strategik vosita." Ushbu talqinda ABC costing usuli korxonani boshqarishda uning strategik quroli sifatida keltiriladi. Ularning fikriga ko'ra AVS usuli faoliyatlardagi xarajatlarni korxonaning yakuniy natijalari bilan bog'lashga imkon beradi. Bu usulning o'ziga xosligi ABC usuli korxonada iqtisodiy samaradorlikni oshirish vositasi bo'lib hisoblanadi.

M. Michael Umble & Elisabeth J. Umblelar (AQSh) "Faoliyatga asoslangan hisob (ABC) - xarajatlarni faoliyatlar bo'yicha tashkil etib, ularni mahsulotlarga taqsimlaydigan zamonaviy xarajatlarni boshqarish tizimi bo'lib, mahsulot tannarxini an'anaviy usullarga nisbatan aniqroq hisoblash imkonini beradi". Ushbu avtorlar tarifi ABC costing tizimi xarajatlarni tashkil etish va mahsulot tannarxini aniqlashda zamonaviy usul sifatida aniqligi haqiqatga ancha yaqin bo'lgan usul sifatida keltiriladi. Ushbu yondoshuviga muvofiq ABC costing sodir bo'lgan xarajatlarni buyurtmalar, ishlar va xizmatlar hamda mahsulotlar bo'yicha asosli taqsimlaydi. Bu usulning afzalligi tannarxni mahsulotlar, buyurtmalar, ish va xizmatlar bo'yicha tashkil etilishi bo'lib hisoblanadi.

Danilova G.M., Kislova Ye.G. "ABC costing - bu boshqaruv hisobining tizimi bo'lib, u samaradorlikka yo'naltirilgan va xarajatlarni faoliyat turlari bo'yicha hisoblash modelidan foydalanadi" [30]. Ushbu avtorlar ABC costing usulini boshqaruv hisobining zamon talablariga javob beruvchi xarajatlarni tashkil etish va ularni yuqori aniqlikda tannarxga olib borish orqali samaradorlikni ta'minlash tizimi sifatida ta'riflaydi. Ushbu yondoshuvga ko'ra ABC costing usuli afzalligi samaradorlikni ta'minlashda yuqori qiymatga ega ekanligidir.

Abdullaev Sh. (O'zbekiston) "ABC usuli korxonalarda xarajatlarni aniqlashda yuqori darajada aniqlik berib, boshqaruv qarorlarini qabul qilishda samarali vosita hisoblanadi". Ushbu avtor ta'rifida ABC costing usuliga mahalliy nuqtai nazardan yondashilgan. Ushbu yondoshuv bo'yicha ABC costing usuli xarajatlarni tashkil etish va mahsulot tannarxini shakllantirishda yuqori aniqlikni ta'minlash vositasidir. Ushbu usulni qo'llash orqali qabul qilinayotgan strategik qarorlarning samaradorligini ta'minlashga erishiladi. Ushbu yondoshuv mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar talablariga mos keladi va amaliy muammolarni hal qilishga qaratilganligi bilan qimmatlidir. Bugun mamlakatimizda keng iqtisodiy islohotlar amalga oshirilayotgan bo'lib, ular iqtisodiy tarmoqlarni modernizatsiya

qilish, resurslardan foydalanishda yuqori samaradorlikni erishish hamda raqobatbardoshlikni bozor talablari darajasiga yetkazishga qaratilgan. "O'zbekiston-2030" strategiyasida iqtisodiy o'sishni ta'minlash, sanoatni diversifikatsiya qilish, davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, "yashil iqtisodiyot" tamoyillarini joriy etish va innovatsiyalarni keng qo'llash ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Ushbu vazifalar kimyo sanoati tarmog'ida xam tarmoq xususiyatlaridan kelib chiqib o'ziga xos xolda yuqori energiya sarflari, ekologik xafsizlik hamda eksportbop mahsulot raqobatbardoshligini ta'minlash va eksport hajmini oshirish kabilarda nomoyon bo'ladi. Shuningdek, kimyo sanoatidagi modernizatsiya jarayonlari laboratoriya jarayonlarini avtomatlashtirish, zamonaviy reaktorlar va texnologik uskunalarni joriy etish, chiqindilarni qayta ishlash va atrof-muhitga ta'sirni kamaytirish kabi vazifalarni o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, resurs tejamkorligi va energiya samaradorligiga e'tibor qaratish iqtisodiy samaradorlikni oshirish bilan birga ekologik barqarorlikni ta'minlaydi. Bunday sharoitda korxonalarda boshqaruv hisobining oldiga xarajatlarni tashkil etish bo'yicha bir qator vazifalar qo'yiladi va ularga quyidagilarni kiritish mumkin.

- resurslardan foydalanishda samaradorlikni ta'minlash maqsadida xarajatlarni faoliyatlar bo'yicha tashkil etish;
- xarajatlarni optimallashtirish va samarasiz xarajatlarni aniqlash orqali resurslar samaradorligiga erishish;
- mahsulot tannarxini aniqlashda aniqlikni ta'minlash.

Xarajatlardan foydalanish samaradorligini oshirish hamda ulardan unumli foydalanish talablari qo'yilayotgan bugungi sharoitda ABC costing usuli o'ziga xos xolda mazmun kasb etadi. An'anaviy usulda ABC costing usuli xarajatlarni faoliyatlar bo'yicha tashkil etish va yakuniy mahsulotlarga taqsimlashni anglatrsa, iqtisodiyotda keng islohotlar olib borilayotgan bugungi sharoitda esa, ushbu usul nafaqat xarajatlarni samarali tashkil etish balki korxonalar oldida turgan strategik maqsadlarni hal etish bo'yicha qarorlar ishlab chiqishda ahamiyatlidir.

### **Xulosa va takliflar.**

Dunyo iqtisodiyotining tez suratlar bilan rivojlanishi resurslarning barcha turlariga bo'lgan extiyojni keskin oshishiga olib keldi. Kimyo sanoati qazib olish va qayta ishlash tarmog'ining uzviy davomi bo'lgan tarmoq sifatida keyingi yillarda tez suratla bilan rivojlanmoqda. Kimyo tarmog'idagi kuchli raqobat va yangi texnologiyalarni joriy etish bilan bog'liq muammolar, tarmoqda maxsulot raqobatbardoshligining muxim omili bo'lgan maxsulot tannarxini kamaytirishni taqozo etmoqda. Xarajatlarni samarali tashkil etish boshqaruv hisobini tashkil etish va uning usullaridan foydalanish orqali amalga oshiriladi. Bu esa o'z navbatida xarajatlarni tashkil etish va ularni tannarxga olib borishning zamonaviy usullarini tadbiq qilishni taqozo etadi. Kimyo tarmog'i texnologik tarmoq bo'lganligi bois xarajatlarni taqsimlashda ABC usuli an'anaviy usullarga nisbatan samarali usul bo'lib hisoblanadi. ABC usuli maxsulot tannarxini faoliyatlarda jamlangan xarajatlar yordamida aniqlashni taqozo etadi. ABC usuli keng modernizatsiyalash jarayonlari amalga oshirilayotgan hozirgi paytda nafaqat xarajatlarni samarali tashkil etish balki korxonalar strategik maqsadlarni amalga oshirishda xam qimmatlidir. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, kimyo sanoatida soxaning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan xolda resurslardan samarali foydalanishni ta'minlash va strategik maqsadlarni amalga oshirishni ta'minlash maqsadida quyidagilar taklif etish mumkin:

- korxonalarda boshqaruv hisobini tashkil etish va uning salohiyatidan foydalanishni yo'lga qo'yish;
- boshqaruv hisobining zamonaviy usullarini tanlash va xarajatlarni samarali nazorat qilishni ta'minlash;
- maxsulot tannarxi to'g'risidagi yuqori aniqlikdagi ma'lumotlar bilan boshqaruvni ta'minlashga erishish.

**Adabiyotlar/Literaturaga/References:**

- Hornrgren, C. T.(2005). *Introduction to Management Accounting / C. T. Hornrgren, G. L. Sundem, W. O. Stratton. — 14th ed. — Upper Saddle River, NJ: Prentice Hall. 896 p.*
- Друри К. (2019). *Управленческий производственный учет/К.Друри. -М.: ЮНИТИ, 2019.-224 с*
- Labro, E. (2025). *Thoughts on Management Accounting Research at The Accounting Review's Centennial / E. Labro // The Accounting Review. Vol. 100, No. 6. — P. 373–384.*
- Аткинсон Э.А. (2016.) *Управленческий учет./ Э.А. Аткинсон, Р.Д. Банкер, Р.С. Каплан; Пер. с англ.-М.: Изд. дом «Вильямс»»,880 с.*
- Бахрушина М.А. (2017). *Стратегический управленческий чет/М.А.Бахрушина, М.И.Сидорова.-М.: КноРус,. -320 с.*
- Карпова, Т.П. (2012).*Управленческий учет [Текст]. / Т.П. Карпова. - М.: ЮНИТИДАНА, 2012.- с.28.*
- Хасанов Б.А. (2003).*Бошқарув ҳисоби. Монография. Т.– 191 б*
- Абдусаломова Н.Б. (2019). *Бошқарув ҳисоби тизимида ички назорат ва бюджетлаштириш услубиятини такомиллаштириш. 08.00.08-Бухгалтерия ҳисоби, иқтисодий таҳлил ихтисослиги бўйича иқтисодиёт фанлари доктори илмий даражасини олиш ёзилган диссертация.*
- Махсудов Б.Ю. (2018). *Бошқарув ҳисобида бюджетлаштириш услубиятини такомиллаштириш. 08.00.08-Бухгалтерия ҳисоби, иқтисодий таҳлил ихтисослиги бўйича иқтисодиёт фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация.*
- Garrison R.H., Noreen E.W., Brewer P.C. (2021). *Managerial Accounting. – 17th ed. – New York: McGraw-Hill Education, – 832 p.*
- Anthony R.N., Govindarajan V.(2007). *Management Control Systems. – 12th ed. – McGraw-Hill, – 768 p. (Korxonalarda xarajat markazlari va boshqaruv nazorati)*
- Drury C. (2018). *Management and Cost Accounting. – 10th ed. – Cengage Learning,. – 864 p.*
- К. Друри.(2015). *“Управленческий и производственный учет». учеб. / К. рури. – 5-ое изд., перераб. и доп. -М.: ЮНИТИ-ДАНА, – 735 с*
- Хорнгрен Ч., Фостер Ж., Датар Ш. (2008). *“Управленческий учет” 10 ое изд./ Пер. С англ. / СПб.: Питер .–1008 с*
- IAS 1 (1983). *«Молиявий ҳисоботларни тақдим этиш» (International Accounting Standard 1)*
- Kohler, E. L. *A Dictionary for Accountants. 6th ed. / Edited by W.W. Cooper and Y. Ijiri. - Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall, . - 624 p.*
- Chartered Institute of Management Accountants(2024)-*Boshqaruv buxgalterlari malakali instituti).* *Управленческий учет по международным стандартам: учебное пособие / под ред. А. Д. Шеремета. — М.: ИНФРА-М,. - 280 с.*
- American Accounting Association (AAA). *A Statement of Basic Accounting Postulates. Accounting Review Supplement. Vol.39 1–8.*
- ВМ 54-сонли қарори. Ў. Р. В. М. (1999) 5 февралдаги «Маҳсулот (ишлар, хизматлар)ни ишлаб чиқариш ва сотиш харажатларининг таркиби ҳамда молиявий натижаларни шакллантириш тартиби тўғрисидаги Низомни тасдиқлаш ҳақида»ги 54-сон қарори // Lex.uz.
- Хасанов, Б. А. (2011). *Бошқарув ҳисоби: Дарслик / Б. А. Хасанов. — Т.: «IQTISOD-MOLIYA», — 312 б.*
- Абдусаломова, Н. Б. (2019). *Бошқарув ҳисоби: Дарслик. — Т.: «IQTISOD-MOLIYA», — 364 б.*
- Hornrgren, C. T., Datar, S. M., Rajan, M. V. *Cost (2018). Accounting: A Managerial Emphasis. – 16th ed. – Pearson, – 912 p.*

*Хорнгрен, Ч. Т., Фостер, Дж. (2004). Бухгалтерский учет: управленческий аспект / пер. с англ. О. Д. Кавериной, И. В. Романовского; под ред. Я. В. Соколова. – М.: Финансы и статистика, – 415 с.*

*Друри, К. (2017). Управленческий учет для бизнес-решений: Учебник / пер. с англ. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, . – 655 с. – (Серия «Зарубежный учебник»).*

*Хорнгрен, Ч. Т., Фостер, Дж., Датар, Ш. (2021). Управленческий учет. – 10-е изд. – СПб.: Питер, . – 1008 с.*

*Johnson, H. Thomas; Kaplan, Robert S. Relevance Lost: The Rise and Fall of Management Accounting. – Boston: Harvard Business School Press, . – 269 p.*

*Blocher, E. J., Stout, D. E., Juras, P. E., Smith, S. A. Cost Management: A Strategic Emphasis. – 9th ed. – New York: McGraw-Hill Education, . – 944 p.*

*Umble, M. M.; Umble, E. J.(2001) Activity-Based Costing and Its Applications // Management Accounting Quarterly. – Vol. 2, No. 2. – P. 1–8.*

*Данилова, Г. М., Кислова, Е. Г. (2015). Управленческий учет: Учебное пособие. – М.: Инфра М, . – 272 с.*

*Абдуллаев, Ш. (2019) Бошқарув ҳисоби: назария ва амалиёт. – Тошкент: ТДИУ нашриёти, 320 б.*